



INTENSIV BOG‘LARDA OLMA EKISH SXEMALARINING XUSUSIYATLARI

B.X.Xalmirzayev

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Agrobiotexnologiyalar va oziq ovqat xavfsizligi instituti
Meva sabzavotchilik va uzumchilik kafedrasida dotsenti*

D.S.Normurodov

Meva sabzavotchilik va uzumchilik kafedrasida professori

Sh.Abdurajabov - talaba

Dunyo bo‘yicha olma yetishtirish yalpi hajmi 80,5 mln tonnadan ortiq bo‘lib, yetakchi o‘rinlarni Xitoy (mos holda 44,45 mln tonna), AQSh (4,65 mln tonna), Polsha (3,60 mln tonna) va Turkiya (2,93 mln tonna) egallab kelmoqda. Olma yetishtirish va uni eksport qilish bo‘yicha dunyoda birinchi o‘rinlarni egallab kelayotgan davlatlarda olma bog‘larining qariyb 90-95% past bo‘yli payvandtaglarga asoslangan intensiv bog‘larda yetishtirilmoqda.

Olma yetishtirishni yanada yaxshilashda yangi, serhosil, mevasi sifatli bo‘lgan olma navlarini sinovdan o‘tkazish va ularni keng ishlab chiqarishga joriy qilish, ilg‘or agrotexnika tadbirlarini qo‘llash, zararkunanda va kasalliklarga qarshi uyg‘unlashgan himoya usullarini amaliyotga tatbiq qilish, hosilni yig‘ib olish, qadoqlash va sovuqxonalarda saqlash usullarini yanada takomillashtirish hamda fermer va agronomlarning bilimlarini, zamonaviy bog‘dorchilik yangiliklariga uyg‘un holda, oshirishlarini ta‘minlash zarur. Ayniqsa, bu payvandtaglarda yetishtirilayotgan olma daraxtlarini zamonaviy sug‘orish usullaridan biri bo‘lgan tomchilatib sug‘orish tizimini qo‘llash orqali o‘stirish nafaqat hosildorlikning yuqori bo‘lishiga, balki uzoq yillar davomida sifatli meva olish imkoniyatini yaratadi.

O‘zbekistonda yetishtiriladigan olmalar tarkibida o‘rtacha 80,5-86,5% suv; 9,6-14,8% shakar; 0,31-0,91% kislotalar; 0,27-0,48% eruvchan pektin; 0,025- 0,060% yaqin oshlovchi moddalar; 0,10-0,45% mineral tuzlar va bir qancha vitaminlar bor. Olmaning (qishda yangi uzilgan mevalar kam bo‘lganda) vitaminlarga boy, yaxshi saqlanadigan qishki navlari ayniqsa, qimmatlidir. 100 g yangi uzilgan olmada bor-yo‘g‘i 47 kilokaloriya mavjud. Unda yog‘lar deyarli yo‘q. Biroq tarkibi uglevodlarga boy bo‘lgani uchun to‘yimlilik darajasi yuqori. Shu sababdan ozishni istaganlar uchun yaxshi oziq bo‘la oladi. Olmada S, V1 , V2 , R, Ye, A vitaminlari, kaliy, marganes va temir



moddalari ko'p miqdorda mavjud. S va V vitaminlari barcha a'zolarida modda almashinuvini yaxshilaydi.

Past va pakana bo'yli payvandtaglarda ekiladigan intensiv bog'lar uchun eng yaxshi tuproq bu mexanik tarkibi yengil bo'lgan qumli yoki loyqumli qo'ng'ir bo'z tuproqlar, tag qatlami qalin qumloq, yaxshi drenajga ega, qalin qatlamni bo'lgan, o'tloq bo'z tuproqlardir.

Past va pakana bog'lar ekilgan yerda chuchuk yerosti suvi 1,5-2 m va minerallashgan yer osti suvi 3-3,5 m yaqin bo'lmasligi lozim. Daryolarga yaqin bo'lgan maydonlarda yer osti suvining sathi 1,0-1,2 m bo'lsa ham bo'ladi. Faqat ular (tuproq) tarkibi zararli (xlorid va sulfat) tuzlar bo'lmasligi lozim.

Intensiv bog'larni juda ham zich bo'lgan tuproqlarda va tuproqni ustki qismi (tekislash jarayonida) olib tashlangan maydonlarda barpo qilib bo'lmaydi. Pastqam, sovuq havo turib qolishi oqibatida daraxtlarni sovuq urishi ehtimoli yuqori bo'lgan maydonda intensiv bog' barpo qilish tavsiya etilmaydi.

1-jadval

Mevali daraxtlar turi	O'sish kuchi bo'yicha payvandtaglar	Ekish sxemasi, (m)	Bir gektar bog'dagi daraxtlar soni, dona
Olma	Kuchsiz o'suvchi zamonaviy (zichlashgan) simbag'azli bog'	4x3,5	714
		4x3	833
		3,5x3	952
		3,5x2,5	1143
		3,5x1,5	1905
		3,5x1	2857

Daraxtlarni joylashtirishda shuni e'tiborga olish lozimki, bir gektar maydonda qancha ko'p daraxt joylashgan bo'lsa, hosil ham shuncha ko'p bo'ladi. Lekin buning ham me'yori va chegarasi bor. Chegarani belgilab beruvchi omillar daraxtlarning hajmiga, ularga shakl berish usuliga, qator oralariga ishlov berishda, mexanizatsiyalash darajasiga, turiga va bir qancha boshqa omillarga bog'liq. Intensiv bog'larni tashkil qilishda, ayniqsa, simbag'azli bog'larni, daraxtlar qalin (zich) ekilmoqda. Daraxtlar juda ham zichlashib ketishi oqibatida mevasining miqdoriga va ayniqsa, sifatiga salbiy ta'sir etadi.

Simbag'azli bog'larda o'stirilayotgan meva daraxtining eni (tanasining qalinligi) pakana bo'yli daraxtlarda 100 sm va past bo'yli daraxtlarda 150 sm ni tashkil qilishi lozim, shunda tanasini quyosh nurlari yaxshi yoritadi. Daraxtlarning bo'yi esa 3,5 m dan



oshmasligi kerak. Qator oralari 3,5-4,0 m bo'lganda daraxtlar tanalari quyosh nuri bilan yaxshi ta'minlangan bo'ladi.

Past va pakana bo'yli daraxtlar qator oralarining kengligi tuproq unumdorligiga, suv bilan ta'minlanganligiga va ayniqsa, navning o'sish kuchiga uzviy bog'liq. Shu bilan bir vaqtda hozir respublikamizga keng qamrovda kirib kelgan zamonaviy usulda daraxtlarni zichlashtirilgan usulda joylashtirish texnologiyasini hisobga olgan holda quyidagi sxemada ko'chatlarni ekish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh. "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallagan strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida". PQ-4575-son qarori. – Toshkent, 2020 yil 28 yanvar.
2. D.S.Normurodov, Sh.Abrorov, Sh.N.Rajametov, S.T.Sanayev, I.Normuratov, B.X.Xalmirzayev, B.S.Mamatov. Intensiv mekachilik Samarqand 2021
3. Abrorov Sh., Sultonov K., Normuratov I. «O'zbekistonda zamonaviy intensiv olma bog'lari». Toshkent : Baktria press, 2016. – b. 5-132
4. Aripov A.U., Aripov A.A. «Urug'li intensiv meva bog'lari». — Toshkent: «SHARQ», 2013. — b. 108-121.
5. Ostanaqulov T.E., Islamov S.Ya, Xonqulov X.X., Sanayev S.T., Xolmirzayev D.K. "Mevachilik va sabzavotchilik". S., 2011. — b. 232-250
6. Botirov, A., Sanayev, S., & Saidov, M. (2022). Mamlakatimizda olma ko'chatlarini ko'paytirishning nazariy asoslari tahlili. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 616-620.
7. Sanayev, S. T., & Saidov, M. (2022). OLMA NAVLARINIG MM106 PAYVANDTAGIGA PAYVAND QILINGANDA KUZATILGAN NATIJALAR. *Academic research in educational sciences*, 3(12), 33-37.
8. Shavkatovna, X. M., Ziyedullayevich, S. X., & Qo'shoqovich, Q. S. (2024). SHAFTOLI, OLXO 'RI VA BODOM PAYVANDTAGLARINI ISSIQXONADA YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI. *TADQIQOTLAR. UZ*, 31(1), 163-167.
9. Қўшоқович, Қ. С., Спйфидинов, Х. З., & Самаридинович, Қ. Н. (2024). ГИЛОС (CERASUS AVIUM L.) МЕВАЛИ ЭКИНИНИ ЕТИШТИРИШНИНГ АМАЛИЙ ЖИХАТЛАРИ. *TADQIQOTLAR. UZ*, 31(1), 154-159.
- 10.
11. YETISHTIRISH. *Academic research in educational sciences*, (Conference), 280-283.



12. Mahmadiyurov, F., Normurodov, D., & Sanaeva, L. (2023). THE INFLUENCE OF GROWING SUBSTANCES AND MICROELEMENTS ON YIELD AND HARVEST QUALITY OF WHITE SULTANAS. *Science and innovation*, 2(D11), 223-225.

13. Махмадиёров, Ф. Ш., & Санаева, Л. М. (2022). ЎСТИРУВЧИ МОДДАЛАР ҲАМДА МИКРОЭЛЕМЕНТЛАРНИНГ УЗУМНИНГ ОҚ КИШМИШ НАВИ ЎСИШИ РИВОЖЛАНИШИГА ТАЪСИРИ. *Academic research in educational sciences, (Conference)*, 408-411.

14. Mahmadiyurov, F., Normurodov, D., & Sanaeva, L. (2022). УЗУМНИНГ ОҚ КИШМИШ НАВИ ҲОСИЛДОРЛИГИ ВА ҲОСИЛ СИФАТИГА ЎСТИРУВЧИ МОДДАЛАР ҲАМДА МИКРОЭЛЕМЕНТЛАРНИНГ ТАЪСИРИ. *Science and innovation*, 1(D7), 473-475.

15. Mahmadiyurov, F. S. O. G. L., & Mizamovna, S. L. (2023). KISHMISHBOP UZUM NAVLARINING TOVARBOPLIK KO 'RSATKICHLARIGA O 'STIRUVCHI MODDALAR VA MIKROELEMENTLARNING TA 'SIRINI O 'RGANISH. *Academic research in educational sciences, 4(SamTSAU Conference 1)*, 657-660.